



## PEDAGOGIKADA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR

*Muqumova D.I.*

*Ilmiy rahbar: "TIQXMMI" MTU "Professional ta'lim" kafedrası*

*Haqqulova M.N.*

*"TIQXMMI" MTU "Yer resurslari va kadastr" fakulteti, Professional ta'lim (yer kadastrı va yer tuzish) yo'nalishi 313- guruh talabasi*

**Tayanch so'zlar:** zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, ta'lim jarayonida interfaol metodlar o'rni, interfaol metodlarni qo'llash natijasi.

**Ключевые слова:** современное образование, педагогические технологии, роль интерактивных методов в образовательном процессе, результат использования интерактивных методов.

**Key words:** modern education, pedagogical technologies, the role of interactive methods in the educational process, the result of using interactive methods.

**Резюме:**

Mazkur maqolamda, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida o'quv jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilib, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Резюме:**

В данной статье рассмотрена важность использования современных интерактивных методов в образовательном процессе в целях повышения эффективности обучения, разработаны предложения и рекомендации.

**Summary:**

This article examines the importance of using modern interactive methods in the educational process in order to improve the effectiveness of learning, and develops proposals and recommendations.

Biz axborot texnologiyalar tobora rivojlanib, ravnaq topib borayotgan XXI asrda yashamoqdamiz. Bugungi kunda bizning ta'lim jarayonimizda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishiningsabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini

o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Interfaol tushunchasi - ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) tarzida ifodalanib, lug'aviy nuqtai nazardan “inter” – o'zaro, “act” – harakat qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Interfaol ta'lim - talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishda har bir talabanning shaxsiy xususiyatlarini xisobga olish zarur. Pedagogik muloqot o'rnatish uchun zamonaviy, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ehtiyoji tuug'ildi. Bu texnologiyalardan biri interaktiv dars usullaridir. Lotinchada “inter”-o'zaro, “akt” – muloqot yaqinlikidir. Interaktiv usullardan foydalanishdan maqsad shuki darslarni qiziqarli, sarmazmun, eng muhimi samarali qilib o'tkazishdir. Bu talabani bilimi ortadi, shaxsiyati rivojlanadi va o'quv jarayoning maxsuldorligi ko'payadi. Ma'lumki yaxshi o'zlashtirish uchun shunchaki tinglab yozib o'tirish yetarli emas, balki shu material ustida faol ishlash, o'ylab ko'rish, muhokama qilib chiqish, yordamchi vazifalar bajarishi kerak.

Zamonaviy tilda metodlarni interfaol va interaktiv metodlar ham deb atashadi.



Interfaol metodlar deganda- ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayoning markazida ta'lim oluvchi faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda nomoyon bo'ladi

- Ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish:
- Ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi
- Ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olininshi
- O'qish shiddatini ta'limoluvchini tashabbusligi va masulyatining qo'llab quvvatlanishi:

- Amalda bajarish orqali o'rganilishi:

O'qitishning interfaol metodlari o'quvchilarning g'oyatda katta ta'limiy salohiyatini faollashtirish va foydalanishga, o'quv jarayoniga ijodiy elementlarini kiritish va ijodiy faoliyat yurituvchi tizimlarga xos xususiyatlaridan foydalanishga imkon beradi. Ushbu interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarni mustaqil, erkin fikrlashlariga imkon beradi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quv materiallarining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Bugungi kunda ta'lim amaliyotida 600 ga yaqin interfaol metodlar qo'llanilmoqda. Interfaol ta'lim metodlarini barcha ta'lim muassasalariga tadbiiq etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish va ta'limni individuallashtirish, shaxsga yo'naltirish, ta'limga texnologik yondashuvni shakllantirish hamda faol usullarni ta'lim jarayonlarida qo'llash orqali o'quvchilarni mustaqil ravishda o'zlashtirish, tahlil qilish, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar chiqarish, erkin fikr yuritishga o'rgatish – pedagogning dasturil amal vazifasi bo'lib qoladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etish, ayniqsa interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Interfaol usullardan o'quv jarayonida foydalanish ta'lim tizimida keng tarqalib bormoqda. Bu o'quv jarayonini liberilizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik, ham ijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bir so'z bilan aytganda, o'quv jarayonining markazida o'quvchi bo'lmog'i lozim va o'quv jarayoni unga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lishi talab etilmoqda. Shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchining o'quv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishli tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltirib o'tamiz. Bu metodlarni tasniflashda

ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b. Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va boshqalar. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "PAZZLL", "Nima uchun?", "Qor parchasi" va boshqalar

Xulosa. Bugungi kunda dunyoda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyal mavjud bo'lib, o'qitish jarayonida eng samaralisini tanlash birinchi navbatda dars beruvchi o'qituvchiga bog'liqligini yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shunday ekan, o'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqa omillarni e'tiborga olgan holda tanlash ta'lim sifatini yanada oshirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi metodikalardan kelib chiqib hozirgi kunda qo'llaniladigan metodikalarni ammaliyotda qo'llanilsa o'qish yanayam samarali bo'ladi deb o'ylayman.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23-sentabr, O'RQ-637-son qarori bilan tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.
3. "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida"
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 йil 26 sentyabrdagi PK- 3289-son qarori Sultonova G.A. Pedagogik mahorat / T.: TDPU, 2005.
5. Дилрабо Мукумова Инатовна. Севара Ярова Баходировна. Педагогические нормы в системе непрерывного профессионального образования. Intellectual education technological solutions and innovative digital tools/ International scientific-online conference/ Part 7/ 2022 - AUGUST 13.
6. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007
7. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil.
8. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent. Fan va texnologiya .2012-yil.
9. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma. Toshkent. O'qituvchi 2004-yil.